KWORK.RU PLATFORMASI bilan ishlash yo'riqnomasi

1-bosqich:

1. Brauzerda Kwork.ru manziliga kiriladi.
2. Yuqori o'ng burchakdagi **"Регистрация"** tugmasi bosiladi.
3. Rolni tanlash (Muhim!): Tizim *"Кто вы?"* (Siz kimsiz?) deb so'raydi. O'quvchilar "Продавец" (Sotuvchi/Frilanser) bandini tanlashlari kerak.
4. Ma'lumotlarni kiritish: Elektron pochta (Email) yoziladi yoki Google akkaunt orqali tezkor ro'yxatdan o'tiladi. Pochtaga kelgan havolani bosib, profil faollashtiriladi.

2-bosqich:

Profilni to'g'ri jihozlash (Заполнение профиля)

Mijoz pul to'lashdan oldin frilanserning profiliga kirib ko'radi. Shuning uchun buni o'quvchilarga darsda amaliy topshiriq sifatida qildirish mumkin:

- ✓ **Avatar (Profil rasmi):** Kompyuter grafikasi emas, o'quvchining o'zini jilmayib turgan, fonga nisbatan aniq tushgan professionalroq rasmi bo'lishi ishonchni oshiradi.
- ✓ **Имя/Никнейм:** Taxalluslar (masalan, *Hacker99*, *Dasturchi_bola*) emas, ism-sharif (masalan, *Dilafro'z_Dasturchi* yoki *Lola_Dev*) bo'lgani ma'qul.
- ✓ **O себе (O'zi haqida):** Qisqa va lo'nda yoziladi.
- ✓ **Namuna:** *"Salom! Men mobil ilovalar va dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassisman. Python va JavaScript tillarida kod yozaman. Mobil ilovalarni testlash (QA), tayyor ilovalarni Google Play'ga yuklash va kodlardagi xatolarni tuzatish (Bug fixing) bilan shug'ullanaman. Ishni sifatli va vaqtida topshiraman."*

3-bosqich:

Mobil dasturchi uchun mos ish turlarini bilish

O'quvchilar "Mobil qurilmalarning dasturiy ta'minoti" fani doirasida Kwork'da qaysi ruknlarda (Kategoriya) ish topishlari mumkin?

- ✓ **Разработка IT -> Мобильные приложения** (Noldan ilova yaratish — bu yuqori kurslar uchun).
- ✓ **Разработка IT -> Доработка и IT-поддержка** (Mavjud mobil ilovani o'zgartirish, xatosini to'g'rilash — yangi boshlovchilarbop).
- ✓ **Разработка IT -> Тестирование и QA** - Mobil ilovalarni telefonda ochib, test qilib berish va xatolar hisobotini tuzish.
- ✓ **Дизайн -> Дизайн интерфейсов (UI/UX)** - Mobil ilovalar dizaynini Figma'da chizish.

4-bosqich:

Birinchi xizmatni yaratish - "Кворк" ochish

Kwork platformasida har bitta xizmat turi **"Кворк"** deb ataladi. Kamida 1-2 ta kwork yaratish kerak:

1. Shaxsiy kabinetda **"Создать кворк"** tugmasi bosiladi.
2. **Название (Sarlavha):** Aniq bo'lishi kerak. Masalan: *"Сделаю тестирование вашего мобильного приложения на Android"* yoki *"Исправлю ошибки в коде Python/JavaScript"*.
3. **Рубрика:** Yuqoridagi mos rukn tanlanadi.
4. **Описание (Tavsif):** Mijoz bu pulga aynan nima olishi yoziladi: *"Ushbu kwork doirasida men sizning Android ilovangizni 3 xil telefonda test qilaman va barcha xatolar ro'yxatini taqdim etaman"*.

5. **Стоимость (Narx):** Boshlanishiga minimal narx — **500 rubl** qo‘ygan ma’qul (mijozlarni jalb qilish uchun).

5-bosqich:
Mijoz topish va buyurtma olishning ikki xil yo‘li mavjud.

1. **Pasiv yo‘l (Kwork do‘koni):**

O‘quvchi kwork yaratib qo‘yadi, mijozlar qidiruv orqali uni topib, o‘zlari yozishadi. Saytda har doim onlayn bo‘lish (yoki telefonga ilovasini o‘rnatib olish) tezkor javob qaytarish uchun muhim.

2. **Faol yo‘l (Kwork Birjasi — "Биржа"):**

Mijozlar o‘z ehtiyojlarini (masalan: *"Menga mobil ilovaga ma'lumotlar bazasini ulab beradigan odam kerak"*) e’lon qilib qo‘yishadi.

- ✓ Yuqoridagi **"Биржа"** bo‘limiga kiriladi.
- ✓ Fanga mos keladigan buyurtmalar qidiriladi.
- ✓ **"Предложить услугу"** tugmasini bosib, mijozga xat yoziladi: *"Salom, men bu vazifani bajara olaman. Dasturlash bo'yicha bilimim bor. Ishingizni tez fursatda bitirib beraman".*

6-bosqich:
Ishni bajarish va tizimga yuklash (Сдача работы)

Mijoz buyurtma berganidan keyin saytda taymer (vaqt) ishga tushadi. Ishni belgilangan muddatdan kechiktirmaslik kerak.

1. Ish (kod fayllari, hisobot yoki apk fayl) tayyor bo‘lgach, buyurtma sahifasiga (Страница заказа) kiriladi.
2. **"Сдать работу"** (Ishni topshirish) tugmasi bosiladi.
3. Xat yoziladi: *"Ish tayyor, tekshirib ko'rishingiz mumkin"* va tayyor fayllar yoki dastur kodi yuklanadi (Прикрепить файлы).
4. Mijoz ishni tekshiradi. Agar hamma narsa to‘g‘ri bo‘lsa, **"Принять заказ"** tugmasini bosadi. Shundan so‘ng pul avtomatik ravishda o‘quvchining hisobiga (balansiga) o‘tadi.

7-bosqich:
Pulni yechib olish (Вывод средств)

Kwork tizimida to‘plangan pullarni O‘zbekistonga yechib olishning bir necha yo‘llari bor (buni talabalarga tushuntirish ularda katta qiziqish uyg‘otadi):

- ✓ **Bank kartalari (Visa / MasterCard):** To‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro kartalarga o‘tkazish.
- ✓ **Elektron hamyonlar:** Qiwi yoki WebMoney (shuningdek, Payeer) hamyonlari orqali yechib, keyin uzoq masofadan turib mahalliy Uzcard/Humokartalariga o‘tkazish mumkin.

Kwork qoidalari bo‘yicha mijoz bilan saytdan tashqarida (Telegram, WhatsApp'da) muloqot qilish, telefon raqam almashish qat'iyan taqiqlanadi. Buni aniqlasa, tizim akkauntni bloklaydi. Barcha suhbat va pul hisob-kitoblari faqat Kwork ichida bo‘lishi shart. Bu xavfsizlik kafolatidir.